

BOSHLANG'ICH SINF “TARBIYA” DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

G‘ulomova Dilfuza Ikromjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Namangan filiali magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya jarayonining milliy va xalqaro tajribalar asosida shakllanishi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni tahlil qilinadi. Shuningdek, dunyo va o‘zbek mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlari hamda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar yoritilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etish, milliy qadriyatlar va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Mamlakatimizda joriy qilingan “Tarbiya” fani va uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi orqali yosh avlodda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ta’lim, milliy g‘oya, ma’naviyat, axloqiy tarbiya, pedagogika, milliy qadriyatlar, ta’lim islohotlari, tarbiyaviy jarayon, uzluksiz tarbiya.

Abstract: This article analyzes the formation of the education and upbringing process based on national and international experiences and its role in societal development. It explores the perspectives of global and Uzbek thinkers on upbringing and highlights the educational reforms in Uzbekistan. In particular, it discusses the effective organization of educational processes in primary education, emphasizing the importance of national values and moral-ethical upbringing. Special attention is given to the introduction of the subject "Upbringing" and the concept of continuous spiritual education in the country, which aims to instill national pride and patriotism in the younger generation.

Key words: upbringing, education, national ideology, spirituality, moral education, pedagogy, national values, educational reforms, upbringing process, continuous education.

Mamlakatimizda bu yo‘nalishda bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, ta‘lim tizimini va sifatini oshirish, o‘quvchilardagi milliy qadriyatlarni, ma‘naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, milliy mafkuraviy g‘oyalar hamda madaniy qadriyatlarga muvofiq ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy o‘quv dasturlarini joriy qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli, tizimli islohotlarning natijaviyligini ta‘minlashda boshlang‘ich ta‘lim bosqichida faoliyat olib borayotgan har bir o‘qituvchini ixtisoslikka oid metodik talablarga mos ravishda pedagogik faoliyatni tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

AQSH pedagoglari, xususan, Jon Jems tarbiyada pragmatizm, ya‘ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo‘yishadi. Unga ko‘ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, shaxsiy sifatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish kerakligini ta‘kidlagan.

Yunon faylasufi Platonning fikricha, “tarbiya” so‘zi yunon tilida “paideia”, “o‘yin” ya‘ni “paidia” so‘ziga talaffuzi juda yaqin” hisoblanadi. “Tarbiya” tushunchasini yunoncha “paidia” ya‘ni “o‘yin” tushunchasi bilan yaqinligi barcha millatlarga ham xos bo‘lib, buni aksariyat hollarda tarbiya yosh avlodda turli xalq o‘yinlari, kundalik uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan qorishiq holda shakllanib borishida ko‘rish mumkin.

MDHning mashhur olimlaridan K.D.Ushinskiy tarbiya haqida shunday fikr bildirgan: “Tarbiyachi hamisha, tarbiya kuchi shu qadar beqiyoski, undan hech qachon butun borligicha foydalana olmasligiga ishongan bo‘lishi kerak”[25], Mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiyning fikricha, tarbiyaning barcha fazilatlari yosh avlodning axloqiy dunyosiga ta‘sir etish kerak. Inson darajasidek murakkab va boy narsa yo‘q. Uni har tomonlama mukammal bo‘lishi, axloqiy tugal bo‘lishi tarbiyaning maqsadidir, deb ta‘kidlaydi[26].

Xorijda o‘tkazilgan tadqiqotlarda tarbiya masalasida V.Korchak “Tarbiyachining ma‘naviy darajasi qanchalik tuban, axloqiy qiyofasi bemaza bo‘lsa va u faqat o‘z tinchi

va oromini o'ylasa, go'yo bolalarning tashvishi taqozo etgan har xil buyruq va taqiqlarni shu qadar ko'p chiqaraveradi.”[27]

Xorij tadqiqotlarining yana bir jihati inson “meni”ni ochish, “inson kapitali” bilan bog‘lab talqin qilinadi. Jumladan, shunday olimlardan T.Shulsts inson tarbiyasi va kapitali haqida “inson qobiliyatlarining barchasi tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi. Har bir odam o‘zining tug‘ma qobiliyatlariga xos individual gen majmui bilan tug‘iladi. Inson tomonidan mablag‘lar bilan orttirilgan yoki kuchaytirilgan qobiliyatlarni biz “inson kapitali” deb ataymiz”[28] degan bo‘lsa, uning izdoshi G.Bekker tarbiya va inson kapitali bo‘yicha “har bir kishida mavjud bilim xazinasini, malaka ko‘lami va motivatsiyalar zahirasi. Inson kapitalining jamg‘arilishi jismoniy kapital singari katta Xarajatlarni talab etadi va bu murakkab investitsion jarayon bilan bog‘liqdir”[29], deb ta’kidlagan.

Tarbiya masalasida G‘arb mutafakkiri Jon Lokk tarbiya faqat kishilarni savdo-sotiq ishlariga tayyorlash bilan chegaralanib qolmasligi, balki uning yordamida odamlar, ayniqsa, yoshlar fuqarolik mas’uliyatini tushunib olishlari darkorligi borasida fikr yuritadi. U har bir fuqaroda “ezgulikka qaratilgan turmush va amaliy faoliyatga, nimasi bilan o‘z mamlakatiga foydasi tegishi mumkinligi haqidagi ehtiyojni o‘rganishga intilish istagi”[30] shakllanishi lozim

Buning uchun “butun tarbiya san’ati qalbni ezgulik bilan qurollantirishga, uni yanada mustahkamlashga qaratilmog‘i lozim”[31], deya ta’kidlaydi. Jadid mutafakkiri Maxmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” pedagogik dramasida “bilim” olmagan bolaning paratkush bo‘lib yetishishini tasvirlab bergan. Chunki bilim tarbiyaning ilmiy va nazariy asosi hisoblanadi[32].

Mazkur masala bo‘yicha Sharq mutafakkirlari orasida Abu Ali ibn Sinoning qarashlari diqqatga sazovor bo‘lib, “u tarbiya jarayoni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o‘rgatish) tarbiyalarining bir butunligini tashkil etadi, deb ko‘rsatgan edi. U maktabda o‘qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etish g‘oyasini olg‘a surdi. O‘qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratdi. Uning fikricha, bolani birdan

kitobga band qilib qo‘ymaslik, o‘qish sekin-asta, yengildan og‘irga qarab borish orqali olib borilishi kerak”[32].

Tarbiya tushunchasiga oid Abu Ali ibn Sino qarashlarining diqqatga sazovorligi shundaki, unda tarbiya bir butunlik sifatida berilgan: tarbiya aqliy, jismoniy hamda axloqiy tarbiya, estetik va mehnat (hunar o‘rgatish) jarayonlari jamlanmasidir. Ular, olimning fikricha, akademik ta’limdan ajratilgan holda talqin qilingan. Darhaqiqat, ushbu qarashlar tarbiya amaliyotida tarbiya va ta’lim chegaralarini to‘g‘ri belgilab olishda juda muhim hisoblanadi. Garchi mamlakatimiz ta’lim tizimida “ta’lim va tarbiya bir-biridan ajratilmasligi” ustuvor bo‘lsada, Yaponiya tajribasida tarbiya va ta’lim o‘rtasida muayyan chegaralar mavjudligini ko‘rish mumkin. Ya’ni mazkur davlatning ta’lim siyosatiga ko‘ra maktabgacha ta’lim hamda boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida yosh avlodga faqat tarbiya beriladi, akademik ta’lim esa, boshlang‘ich ta’limdan keyin boshlanadi[33].

Tarbiya masalasida so‘z borganda, jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy fikrlarini keltirmaslik mumkin emas. U tarbiya tushunchasiga “tarbiya - “pedagogika”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug‘indan shul xususda bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur”[32], deya ta’rif beradi.

A.Avloniy tarbiya masalasi inson, jamiyat va davlat uchun qanday ahamiyat kasb etishini ifodalash maqsadida “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidur”, degan fikrni ilgari suradi. Bu bilan tarbiya barcha sohadagi taraqqiyotning asosi ekanligini, ayni damda tarbiyasizlik esa barcha sohani halokatga olib boruvchi omil ekanligini ta’kidlaydi[21].

Xususan, bu masalada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning taklifi va tashabbusi bilan tarbiyada milliy g‘oyaning ahamiyatini oshirish maqsadida 2021-yilda O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasi qabul qilingan[10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019-yil 23-avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi

nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishining 24-bandida belgilangan "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dunyo dinlari tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda 2020/2021 o'quv yilidan yagona "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich joriy qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi 22817-xh son yig'ilish bayoni asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son[15] hamda 2020-yil 6-iyulida "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarorlari qabul qilindi[139].

Mazkur qarorlar va ma'ruzalar asosida barcha yosh davrlari uchun "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi qatorida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining psixologik, fiziologik va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda insoniy qadriyatlar, vatanparvarlik va ma'naviy axloq qoidalarini singdirib borish hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkillashtirish maqsadida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda 2020/2021 o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021/2022 o'quv yilidan boshlab mazkur fanlarga ajratilgan dars soatlari tarkibida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi[135].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son Qarori[5] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[7]da "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining

bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish” muhim vazifa sifatida belgilab berilgan[139].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son[6] “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi alohida ta’kidlab o‘tilib, “ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash” muhim yo‘nalish sifatida belgilab berildi. [138]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy ong uyg‘onishi va shakllanishi o‘zlikni anglashdan boshlanishi haqida “Tarbiya” darslari orqali milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish maqsadga muvofiqdir”[138]. O‘zlikni anglash milliy g‘ururni uyg‘otadi. Milliy g‘urur “Men o‘zbekman” deb ko‘krakka urish emas, balki o‘z qadriyatlari, tarixi, tili, an‘analari, buyuk siymolari bilan faxrlana olish hissidir. Bu his insonning o‘ziga ham mas’uliyat yuklaydi. O‘z millatiga munosib inson bo‘lishga undaydi. Biroq o‘zlikni anglash va milliy g‘urur-bu tarixni bilish, madaniy merosni saqlash, til sofliqi, milliy qadriyatni tiklash bilangina kifoyalanmaydi. O‘zlikni anglash o‘zbekligini saqlab qolish, namoyon qilish va jahonda o‘zligini ko‘rsata olish hamdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “g‘urur” so‘ziga quyidagicha sharh berilgan: insonning biror narsadan mamnun bo‘lib, faxrlanish hissi, faxr-iftixor hisoblanadi. XX asrning eng buyuk hodisasi-mustaqillik har bir o‘zbekistonlikning g‘ururi! Istiqlol-mustabidlik qo‘rg‘onlarini buzib, qaramlik zanjirlarini uzib tashlagan g‘urur! Istiqlol O‘zbekiston xalqining qaddini tiklagan, yer yuzining jannatmakon bir go‘shasida “o‘zbek” degan nihoyatda sodda, yigitlari tanti, bag‘ri keng, mehnatkash xalq yashashini butun dunyoga ayon etgan qudratli va jur‘atli g‘urur! G‘urur so‘zining ta’mi non isidek laziz, havu bilan suvdek aziz. Uni kekxa ota-onamizdek, murg‘ak go‘dagimizdek

ardoqda e'zozlab, boshimizni baland ko'tarib yursak arziydi. Uni ko'ksimizga, yuragimizga, vujudimizga joylab yashaylik! Chunki istiqlolga erishish uchun olib borilgan uzundan uzoq kurashlarda g'ururimiz ko'p bor o'ksidi, toptaldi va qon yig'ladi.

Yurtimiz istiqloli haqidagi fikrlar yosh avlodga milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish omili sifatida barcha "Tarbiya" darsliklarida keltirilgan. Bugungi o'zbek xalqining g'ururi butun dunyo bo'ylab qad ko'tarayotgan bir paytda jahon xalqlari orasida O'zbekiston eng rivojlangan mamlakatlar qatorida o'rin olayotgani bizga ma'lum.

Demak, milliy g'ururga ega bo'lgan kishi vatanini jonu dildan sevadi, uning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Bu g'urur ularning tarbiyasiga, ma'naviyati va ma'daniyatiga chuqur ta'sir etib, ajdodlar qo'li bilan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'iday asrash uchun faxrlanish imkonini beradi. Biz vazifani boshlang'ich sinflardayoq yo'lga qo'yishimiz lozim bo'ladi. Uning mazmunida ulug'vorlik, mag'rurlik kabi sifatlar o'z aksini topgan. Bobolarimiz Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Boburlar o'z g'ururlarini minoradek tutushgan. Shunday ekan, bugungi yoshlarimiz bobolari merosiga sodiq qolishlari, ular yaratgan odob-axloq me'yorlariga rioya etishlari lozim. G'ururli bo'lish, birinchi navbatda, xalq manfaatini yoqlash, elga foyda keltirishdir. Xalqimiz o'z hayoti, turmish tarzida eng olijanob g'oyalarni mujassam etgan axloq-odob qoidalariga, ma'naviy qadriyatlarga tayanib kelgan. Shunday ilg'or g'oyalar tufayli elimizda adolat, rostgo'ylik, halollik, pokizalik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, nogironlarga mehrli bo'lish, odamiylik, qardoshlik, vatanparvarlik, shirinsuxanlik va boshqa insoniy fazilatlar rivoj topgan.

Xususan, respublikamizda ushbu masalada N.M.Egamberdiyeva, K.D.Riskulova, A.Sh.Muxsiyeva, N.A.Muslimov, M.Quronov, J.Yo'ldoshev. Z.Ismoilova, U.N.Xujamqulov, U.Mahkamov, R.Niyozmetova kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan ta'lim va tarbiya tizimi davrida o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy metodlar yordamida o'qitish hamda tarixiylik tamoyili asosida tarbiyalash, ajdodlarimiz yaratgan bebaho milliy-mafkuraviy va ma'naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim hisoblanadi. Jumladan, Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, ma'naviy-pedagogik meros yosh avlodni tarbiyalashda bebaho meros sifatida xizmat qiladi. Zero, ushbu mutafakkirlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, milliy-ma'naviy meros, psixologik-pedagogik yondashuvlar, g'oyalar, ilmiy-didaktik asarlar yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, aqlan teran inson sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega sanaladi[138].

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Farobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: "Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar.¹ Bunday kishilarni oqil deydilar". Uning fikricha, "Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. [22]

Sohibqiron Amir Temur "Tuzuklar" asarida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash masalasini talqin qilgan va bunda shaxsda murosa fazilatini shakllantirish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yetuk sifatli shaxs do'stu dushman bilan murosa qiladi. Do'stga murosa qilish tushunarli, lekin dushman bilan murosa qilish, bu shaxsning aqliy hamda axloqiy jihatdan yetukligini anglatadi. [32]

Alisher Navoiy "Hamsa" asarida bir qator komil insonlar timsolini tavsiflab bergan. Misol uchun "Farhod va Shirin" dostonida Farhodni 9 yoshida komil inson bo'lib yetishganini va buning uchun u eng yetuk ustozlardan saboq olganini tasvirlaydi.

¹ BOSHLANG'ICH SINFLARDA „TARBIYA“ FANINI O'QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI – тема научной статьи по наукам о Земле и смежным экологическим наукам читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке

Shirin esa, o‘z davrining eng axloqiy, aqliy va estetik yetuk kishi sifatida taqdim etilgan[32].

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida tarbiyaga shunday ta’rif berilgan: “Tarbiya deganda shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon tushuniladi. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘rsatiladigan chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, u insonning insoniyligini ta’minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi”[91]. Yapon xalqining bugungi kundagi tarbiyalanganlik hamda intellektual darajasi Ibn Sinoning yuqorida keltirilgan fikrlarini qay darajada to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. 16-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni. /O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 50-51-son, 500-modda.13-bet.
4. Abutalimova A.A. Regionalnqe osobennosti sotsializatsii uchao‘ixsya v protsesse izucheniya kulturq narodov Dagestana: dissertatsiya ... kandidata pedagogicheskix nauk: 13.00.01/ Dagestan. gos. ped. un-t. – Maxachkala, 2010. – 160 s.
5. Aksenova L.I. Sotsialnaya pedagogika v spetsialnom obrazovanii. – M.: Akademiya, 2001. – 191 s.23. Alikulova M.M. Ta’lim jarayonini fanlararo ijtimoiy pedagogik takomillashtirish usullari. O‘zPFITI, Toshkent – 2016. – 105 b.

6. Alikulova M.M. VIII-IX sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirishda innovatsion usullar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. – 160 b.
7. Anarbaeva F.U. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda masofaviy ta'limning ahamiyati. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020 – 296 b.
8. Ahlidinov R.Sh. Sotsialno-pedagogicheskie osnovy upravleniya kachestvom obo'ego srednego obrazovaniya: Avtoref. dis. ... d-ra ped. nauk. – Tashkent, 2002. – 44 s.
9. Axliddinov R. O'zbekitonda ta'limni boshqarish: muammolar, izlanishlar, yechimlar. «Ta'lim taraqqiyoti» 2000 yil 3-son.
10. Ahlidinov R.Sh. Ta'lim boshqaruvidan saboqlar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2014. – 440 b.
11. Block K., Gibbs L., Staiger P.K., Gold L., Johnson B., Macfarlane S., Long C., Townsend M. (2012) Growing community: the impact of the Stephanie Alexander Kitchen Garden Program on the social and learning environment in primary schools. *Health Educ Behav.* 39(4): 419-32.
12. Bels V.E. Pedagogicheskie usloviya povqsheniya effektivnosti sotsializatsii podrostkov v uchrejdeniyax dopolnitelnogo obrazovaniya: dissertatsiya ... kandidata pedagogicheskix nauk : 13.00.01 /Tom. gos. ped. un-t.- Tomsk, 2010. – 200 s.
13. Madaminova, M. S. Q. (2024). Building Fluency And Comprehension: Effective Techniques For Reading Instruction. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 748-752.